



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOIYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
I. R. Berdikulova	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIYA VA K-MEANS KLASSTER TAHLILI.....	16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li	
Turobova Hulkar Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
Davletov Ikrom Raximberganovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ	38
Абдуллаева М.Б.	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
Niyozov Zuxur Davronovich	
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО	58
Худойкулова Дилора Дилмуродовна	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSİYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi	
XALQARO MOLİYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLİYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	77
Karimova Dilafruz Sadriiddin qizi	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI	89
Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARNING O'RNI	94
Otarbayev Zamir Zairovich	



SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI	100
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	
ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	107
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	113
Xo'jamov Akbar Bahriddinovich	
KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI	118
Djumayev Askar Xaydarovich	
SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI	123
Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li	
Qahhorova Nargiza Qahramonovna	
Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li	
Jamilov Firdavs Otabek o'g'li	
ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ	129
Норкулов Хабибулло	
Абдурасулова Шахзода	
Бахриддинов Дилшодбек	
NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV	135
Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi	
SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	138
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ	147
Джуманов А.А.	
BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH.....	157
Masharipova Durdona Ulug'bekovna	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ	164
Джуманов А.А.	
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI	174
Raxmanov Furqat Temirovich	
АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Ибрагимов Гайратжон Артикович	
TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH	186
Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich	
SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILLIGIGA TA'SIRI.....	192
Shakarov Zafar Gafforovich	



URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASSTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI	198
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li Uzoqov Rafiq O'lmas o'g'li	
INFRATUZILMA INVESTITSİYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI	204
Jiyanov Laziz Najimovich «ЗЕЛЁНОЕ» ВОДОСНАБЖЕНИЕ В ЗАСУШЛИВЫХ РЕГИОНАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	
Курбанова Дилфуза Махсудовна TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	
Karimova Feruza Xamidullayevna PAXTACHILIKDA ZAMONAVIY AGROTEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA EKOLOGIK MUVOZANAT TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI.....	
Ishniyazov Zoxid Normamatovich FUQAROLAR MUHOJAATLARI MA'LUMOTLARI ASOSIDA HUDUDLARNING IJTIMOIIYIQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	
Inomov Daniyar Valijonovich O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH: HOLAT TAHLILI VA TAVSIYALAR.....	
Niyozov Zuhur Davronovich Xolmurotov Sardor Haydaraliyev Avaz YAQIN SHARQDA TURIZM EKSPORTI STRATEGIYALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI: BAA VA SAUDIYA ARABISTONI TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL	
Tolibova Aziza To'lqin qizi BANKLARDA IJARA MUOMALALARINI TARTIBGA SOLUVCHI ME'YORIY - HUQUQIY ASOSLAR VA XALQARO STANDARTLAR.....	
Sativaldiyeva Gulchexra Xudayberdiyevna QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA STRATEGIK RISK-MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	
Masharipova Sevara TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi BALIQCHILIK TARMOG'INI INTENSIV RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	
Iskandar Yunusov YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: AGROEKOLOGIK VA IJTIMOIIY-IQTISODIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI	
Mirzanov Berdak Joldasbeich RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARIGA TA'SIRI	
A'zamxo'jayeva Nihol CHORVACHILIK MAHSULOTLARI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI: METODOLOGIYA VA TAKOMILLASHTIRISH	
Aysachev Abdulfotix Abdulfazlovich	



O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI	278
Ruziyeva Nigina Baxtiyorovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDA OLIB BORILGAN ISLOHOTLAR (MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA)	284
G.A. Norbo'tayeva	
YASHIL MARKETING VA ESG INTEGRATSIYASI: STATISTIK TAHLIL VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	288
Charos G'ayratova	
РАЗВИТИЕ ЦИФРОВЫХ СИСТЕМ И ОБЗОР ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ	294
Джуманов, А.А.	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI INVESTITSİYALARNI JALB QILISH — IQTISODIY TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI	303
Bayitova Rohatoy Bahrom qizi	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUVCHILARNI SUG'URTA MEKANIZMLARI ORQALI MOLİYALASH MASALALARI	307
Xakimov Zafar Ibragimovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQAROR FAOLIYAT YURITISHINI TA'MINLASH MUAMMOLARI	314
Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li	
FOOD PRICE VOLATILITY AND ITS EFFECTS ON LOW-INCOME HOUSEHOLDS	320
Rakhmatova Mukhlisa Dilshod qizi	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	327
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	
MHXS VA XUSUSIY SEKTOR KREDITLARI: MAMLAKATLARARO EMPIRIK TAHLIL	331
Davronbek Matyakubovich Matkarimov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARINI TASHKIL ETISHNING ZARURATI	336
Xasanova Yulduz Kayumovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ALOQA KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	340
Saidqosimova Umida Ibragimovna	
PROSPECTS FOR DEVELOPING BROKERAGE AND UNDERWRITING ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN	345
Niyozov Zukhur	
Barnoyev Mirfayoz	
Yadgarov Avaz	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING	349
Begzod Nishanov	
BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI BOSHQARISH MEKANIZMLARI	356
Raxim Matniyazov	
Umar Asrayev	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ	367
Зугурова Зилола Дамировна	



EKOLOGIK NIZOLARNI HAL ETISHDA SUD AMALIYOTINING O'RNI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUV	371
Gapparov Sarvar Xolmurodovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ДЕНЕЖНЫЕ ПЕРЕВОДЫ КАК ФИНАНСОВЫЙ РЕСУРС УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ	375
Гимранова О. Б.	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASI TAHLILI (2010–2025-yillar)	383
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
MINTAQADA TABIIY KAPITALNI JAMG'ARISH SAMARADORLIGINI INTEGRAL INDEKS ASOSIDA BAHOLASH VA HUDUDLARNI TABAQALASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	388
Raximov Faxriddin Shavkatovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI UNDIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SOLIQ TO'LOVCHILAR XULQ-ATVORINI MODELLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL VA BIXEVORISTIK YONDASHUVLARNING INTEGRATSIYASI	393
Urazmatov Jonibek Musurmanovich	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORI: JORIY HOLAT, TENDENSIYALAR VA XALQARO TAJRIBA	398
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
KORXONALAR EKSPORT FAOLIYATINI BOSHQARISHDA INNOVATSION MOLIVAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	403
To'rayeva Yulduz Shamsiddin qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	410
Islomov Shuhrat Marufjonovich	
Eshquvvatova Nodira Abdullayevna	
METHODOLOGICAL APPROACHES TO ENHANCING PROFESSIONAL COMMUNICATION SKILLS OF FUTURE TEACHERS IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT	416
Dilnoza Jorayevna Kuvatova	
MINTAQAVIY TURIZM RESURLARINING TASNIFI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'NALISHLARI (SAMARQAND, BUXORO VA XORAZM VILOYATLARI MISOLIDA)	420
Sharipov Shahriyor Shamsiddin o'g'li	
O'ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIKLARIDAGI SUBYEKT VA PREDIKAT PARADIGMASI, ULARNING UMUMIY VA XUSUSIY JIHATLARI	423
Azamova Gulruh Akbar qizi	
BUXORODA TURISTLAR XAVFSIZLIGI: TURISTLARNING XAVFSIZLIK HISSI VA MUAMMOLAR TAHLILI	428
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
Davronova Durdona Akobirovna	
BUXORO VILOYATIDA EKOLOGIK VA MADANIY TURIZMNI INTEGRATSIYALASHGAN YO'NALISHLARINI RIVOJLANTIRISH: BARQAROR RIVOJLANISH METODLARI VA ISTIQBOLLARI	436
Xayrullayeva Nilufarbegim Nematullo qizi	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИСТОЧНИКОВ ИНВЕСТИРОВАНИЯ В ИННОВАЦИОННЫЕ ПРОЕКТЫ	445
Хашимова Н. А.	
QASHQADARYO VILOYATI AHOLISINI IJTIMOY HIMOYA QILISH TIZIMINING STATISTIK TAHLILI	454
M.Sh. Raximova	



O'ZBEKISTON SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYALASHTIRISH XIZMATLARI RIVOJLANISHI HAMDA QONUNIY QO'LLAB-QUVVATLANISHI.....	458
Raimbayev Azim Sultonovich	
Bolbekova Iroda Quvandiq qizi	
MHXS GA MUVOFIQ FOIZLAR, SOLIQLARNI TO'LAGUNGA QADAR OLINGAN FOYDANI HISOBGA OLISH MASALALARI.....	466
Amir Xudaykulov	
SUN'IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON KAPITALINING INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING KONSEPTUAL-EKONOMETRIK MODELİ	470
Dilmonov Qudrat Baxtiyorovich	
THE DIGITAL GASTRONOME: HOW TECHNOLOGY CONNECTS TOURISTS, RESTAURANTS, AND THE TECH EMPIRE.....	479
Freshta Qauomy	
BUXORO VILOYATINI IJTIMOIIYQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI	481
Kudratov Muhammad Rustamovich	



BUXORO VILOYATINI IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIALARNING AHAMIYATI

Kudratov Muhammad Rustamovich

Buxoro davlat universiteti

Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonida xorijiy investitsiyalarning, xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning (TTXI) o'rni va ahamiyati nazariy hamda empirik nuqtai nazardan tahlil etilgan. Tadqiqotda 2017–2026-yillarga oid milliy va hududiy statistik ko'rsatkichlardan foydalanilgan holda investitsiya oqimlarining dinamikasi, tarmoqlar kesimidagi taqsimoti hamda yalpi hududiy mahsulot (YHM), bandlik va sanoat diversifikatsiyasiga ta'siri o'rganilgan. Empirik natijalar xorijiy investitsiyalar mahalliy ustuvorliklar bilan uyg'unlashtirilganda hududiy barqaror rivojlanish sur'atlarini sezilarli darajada jadallashtirishini ko'rsatadi. Maqola so'nggida investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI), Buxoro viloyati, hududiy rivojlanish, yalpi hududiy mahsulot, investitsion muhit, iqtisodiy diversifikatsiya, barqaror rivojlanish, investitsion jozibadorlik.

Аннотация. В данной статье с теоретической и эмпирической точек зрения проанализированы роль и значение иностранных инвестиций, в частности прямых иностранных инвестиций (ПИИ), в процессе социально-экономического развития Бухарской области. В исследовании на основе национальных и региональных статистических показателей за 2017–2026 годы изучены динамика инвестиционных потоков, их отраслевое распределение, а также влияние на валовой региональный продукт (ВРП), занятость населения и диверсификацию промышленности. Эмпирические результаты показывают, что иностранные инвестиции при их согласовании с региональными приоритетами способны существенно ускорять темпы устойчивого территориального развития. В заключение статьи разработаны научно-практические предложения, направленные на повышение инвестиционной привлекательности региона.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, прямые иностранные инвестиции (ПИИ), Бухарская область, региональное развитие, валовой региональный продукт, инвестиционный климат, экономическая диверсификация, устойчивое развитие, инвестиционная привлекательность.

Abstract. This article examines the role and significance of foreign investment, particularly Foreign Direct Investment (FDI), in the socio-economic development of the Bukhara region from both theoretical and empirical perspectives. Using national and regional statistical indicators for the period 2017–2026, the study analyzes the dynamics of investment inflows, their sectoral distribution, and their impact on Gross Regional Product (GRP), employment, and industrial diversification. The empirical findings indicate that foreign investment, when aligned with regional development priorities, can significantly accelerate the pace of sustainable territorial development. The article concludes with a set of scientific and practical recommendations aimed at enhancing the investment attractiveness of the region.

Keywords: foreign investment, Foreign Direct Investment (FDI), Bukhara region, regional development, Gross Regional Product, investment climate, economic diversification, sustainable development, investment attractiveness.

KIRISH

Globallashuv sharoitida xorijiy investitsiyalar milliy va hududiy iqtisodiyotlarni modernizatsiya qilishning, texnologik transferini jadallashtirishning hamda yangi ish o'rinlari yaratishning eng samarali manbalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Iqtisodiy o'sishning neoklassik va endogen nazariyalari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI)ning yalpi mahsulotga nafaqat kapital jamg'arish, balki bilim, boshqaruv tajribasi va innovatsiyalar oqimi orqali ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslaydi. Jumladan, Borensztein va hammualliflarning klassik tadqiqotida



TTXI mavjud inson kapitali bilan o'zaro mutanosib bo'lgan taqdirdagina o'sishni jadallashtiruvchi omilga aylanishi empirik tarzda isbotlangan.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar investitsion muhitni tubdan yaxshilashga qaratildi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yildan e'tiboran mamlakat iqtisodiyotiga barcha manbalar hisobidan jami 188 milliard dollardan ortiq, shundan chet eldan 87 milliard dollardan ziyod investitsiya jalb etilgan; natijada investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 30 foizdan oshgan. Ushbu sur'atlar makroiqtisodiy barqarorlik bilan bir qatorda hududlarning differensiallashgan rivojlanishi masalasini ham kun tartibiga qo'yimoqda.

Buxoro viloyati o'zining geoiqtisodiy joylashuvi, neft-gaz-kimyo sanoati salohiyati, qayta tiklanuvchi energiya resurslari hamda noyob madaniy-tarixiy merosi bilan respublikaning eng istiqbolli mintaqalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, viloyatning investitsion salohiyati to'liq ishga solinganligi haqida bir tomonlama xulosa chiqarish uchun mavjud empirik baza yetarli emas. Aynan shu ziddiyat mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy investitsiyalar, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda hududiy iqtisodiy o'sish, sanoat modernizatsiyasi, yangi ish o'rinlari yaratish va texnologik yangilanishning muhim omili sifatida talqin qilinadi. Klassik investitsiya nazariyalarida kapital oqimlari faqat moliyaviy resurs sifatida emas, balki boshqaruv tajribasi, ilg'or texnologiyalar, xalqaro bozorlar bilan integratsiya va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish vositasi sifatida baholanadi. Xususan, J. Danningning eklektik paradigmasi xorijiy investorlar qaroriga mulkchilik ustunligi, joylashuv afzalligi va ichkilashtirish omillari ta'sir qilishini asoslaydi. Shu nuqtayi nazardan, Buxoro viloyatining tabiiy resurslari, turizm salohiyati, transport-logistika imkoniyatlari va sanoat zonalarini xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim hududiy afzalliklar sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida xorijiy investitsiyalarning rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ahamiyati ularning miqdoriy hajmi bilangina emas, balki iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiya qilish, eksport salohiyatini kengaytirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qilishi bilan ham izohlanadi. UNCTADning "World Investment Report 2025" hisobotida xalqaro investitsiyalar jahon va hududlar kesimida tahlil qilinib, investitsiya siyosati, raqamli iqtisodiyot va barqaror moliyalashtirish masalalari alohida yo'nalish sifatida ko'rsatilgan. Bu yondashuv Buxoro viloyati sharoitida ham dolzarb bo'lib, xorijiy investitsiyalarni faqat xomashyo yoki qurilish sohalariga emas, balki qayta ishlash sanoati, xizmatlar sohasi, turizm infratuzilmasi, yashil energetika va raqamli texnologiyalar kabi yo'nalishlarga yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va xalqaro hisobotlarda 2017-yildan keyingi iqtisodiy islohotlar xorijiy investorlar uchun yanada ochiq va qulay muhit yaratishga xizmat qilgani qayd etiladi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yildan boshlab mamlakatda iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiyl sektorini rivojlantirish va bozor mexanizmlarini kuchaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilgan; 2017–2025-yillarda real YalM o'sishi o'rtacha yiliga 6 foiz atrofida bo'lgan. Bu jarayon hududlar, jumladan, Buxoro viloyati uchun ham xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

OECDning O'zbekiston investitsiya siyosatiga bag'ishlangan tahlillarida investitsiya muhitini yaxshilashda huquqiy barqarorlik, institutsional shaffoflik, soliq va bojxona imtiyozlarining samaradorligi, investorlar huquqlarini himoya qilish hamda mas'uliyatli biznes yuritish tamoyillari muhim omillar sifatida ko'rsatiladi. Mazkur yondashuv Buxoro viloyati misolida xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun nafaqat imtiyozlar berish, balki investitsiya loyihalarini mahalliy resurslar, mehnat bozori, infratuzilma va ekologik talablar bilan uyg'unlashtirish zarurligini anglatadi.

Buxoro viloyati bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar hududda xorijiy investitsiyalar va kreditlar asosiy kapitalga yo'naltirilayotganini ko'rsatadi. Masalan, Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil yanvar–sentabr oylarida Buxoro viloyatida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 8 706,8 mlrd so'mni tashkil etgan, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 970,0 mlrd so'm bo'lgan. Bu raqamlar viloyatda xorijiy moliyaviy resurslarning sanoat, infratuzilma va xizmatlar sohalaridagi loyihalar orqali iqtisodiy faollikni kuchaytirayotganini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Buxoro viloyati statistika boshqarmasi hamda rasmiy davlat hujjatlarining 2017–2026-yillarga oid ma'lumotlari tashkil etadi. Qiyosiy tahlil uchun Jahon banki va UNCTADning xalqaro hisobotlaridan, shuningdek, mavzuga oid ilmiy maqola va dissertatsiyalardan foydalanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy darajadagi tahlil O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish sur'atlari barqaror yuqori bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. 2024-yilda mamlakat iqtisodiyotiga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi avvalgi yilga nisbatan 1,6 barobar oshib, 34,8 milliard dollarni tashkil etdi; 2025-yil uchun esa 42,1 milliard dollar, shu jumladan 36,8 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtirilishi rejalashtirildi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2023-y.	2025-y.	2026-y. (prognoz)
O'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar, mlrd AQSh dollari	—	34,8	42,1
Shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, mlrd AQSh dollari	—	n/m	36,8
Oldingi yilga nisbatan o'sish sur'ati	—	1,6 barobar	1,21 barobar
Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni, ming dona	13,2	n/m	≈17,0
Xorijiy kapital ulushi asosiy kapitalga investitsiyalarda, %	24	n/m	n/m

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni ham izchil o'sib, 2025-yil holatiga ko'ra taxminan 17 mingtaga yetdi. Hududiy kesimda Buxoro viloyatining makroiqtisodiy dinamikasi ham ijobiy traektoriyani namoyish etadi. 2024-yilda viloyatning yalpi hududiy mahsuloti 71,6 trillion so'mga yetib, real o'sish 6,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 86,6 trillion so'mga (+7,2%) ko'tarildi. 2026-yilda YHM hajmini 102,1 trillion so'mga yetkazib, 9,1 foizlik o'sishga erishish maqsad qilib qo'yilgan (2-jadval).

2-jadval

Buxoro viloyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi

Ko'rsatkich	2023-y.	2024-y.	2025-y.	2026-y.
Yalpi hududiy mahsulot (YHM), trln so'm	≈67,2*	71,6	86,6	102,1
YHM real o'sish sur'ati, %	n/m	6,6	7,2	9,1
Sanoat ishlab chiqarishi o'sishi, %	n/m	n/m	7,1	9,1
Qishloq xo'jaligi o'sishi, %	n/m	n/m	4,3	5,9
Xizmatlar sohasi o'sishi, %	n/m	n/m	14,0	20,1
Ishsizlik darajasi, %	n/m	n/m	4,7	n/m
Kambag'allik darajasi, %	n/m	n/m	6,0	n/m

*Manba: Buxoro viloyati statistika boshqarmasi va rasmiy axborotnomalar asosida muallif tomonidan tuzilgan. * — 2023-yil qiymati o'sish indeksi bo'yicha hisoblangan baholama.*

Ayni vaqtda ishsizlik darajasi 4,7 foizgacha, kambag'allik darajasi esa 6 foizgacha pasaydi — bu investitsiyalarning ijtimoiy samarasini bilvosita tasdiqlaydi. Investitsiyalarning tarmoqlar kesimidagi taqsimoti viloyat iqtisodiyotining ko'p qutbli rivojlanish modeliga o'tayotganini ko'rsatadi. So'nggi sakkiz yil ichida viloyatga 8 milliard dollardan ortiq investitsiya jalb etilgan, faqat sanoat sohasida 6 mingdan ziyod yangi korxona tashkil etilgan va sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi olti barobardan ortiq oshgan. Hozirgi kunda shakllantirilgan yirik loyihalar portfeli energetika, avtomobilsozlik, neft-kimyo va qayta ishlash tarmoqlarini qamrab oladi (3-jadval).

3-jadval
Buxoro viloyatidagi yirik investitsiya loyihalari (tarmoqlar kesimida)

Loyiha / yo'nalish	Hudud	Qiymati, mln \$	Ish o'rinlari
Elektr va gibrid avtomobillar ishlab chiqarish (80 ming dona/yil)	Kogon tumani	350	500
Pirolizni qayta ishlash (benzol, toluol, ksilol, bitum va b.)	Buxoro tumani	220	n/m
Quyosh va shamol elektr stansiyalari (10 ta, jami 4,5 GVt)	Viloyat bo'ylab	5 200	n/m
Sanoat tarmoqlaridagi yirik loyihalar (jami 61 ta)	Viloyat bo'ylab	2 200	18 000

Manba: viloyatda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, eng kapital sig'imli yo'nalish — umumiy quvvati 4,5 gigavatt bo'lgan o'nta quyosh va shamol elektr stansiyasi (taxminan 5,2 milliard dollar) bo'lib, u viloyatni mamlakatning yetakchi "yashil" energetika markazlaridan biriga aylantirish imkonini beradi. Kogon tumanida yiliga 80 ming dona elektr va gibrid avtomobil ishlab chiqarish loyihasi (350 mln dollar) esa yuqori qo'shilgan qiymatli sanoat klasterini shakllantirishga xizmat qiladi. Umuman, sanoat tarmoqlaridagi 61 ta yirik loyiha doirasida 18 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratilishi kutilmoqda.

Investitsiyalardan foydalanish samaradorligi tahlili ham ijobiy tendensiyanı tasdiqlaydi: empirik baholashlarga ko'ra, 2021–2025-yillar davomida viloyatda investitsiyalar hajmi 2,86 barobar oshgan, kapital sig'imi koeffitsienti (ICOR) esa 4,8 dan 4,2 ga yaxshilangan. Bu har bir birlik qo'shimcha mahsulotni yaratish uchun talab etilayotgan investitsiya hajmi kamayganini, ya'ni kapitaldan foydalanish samaradorligi oshganini bildiradi.

Viloyat investitsion muhitining ichki va tashqi omillarini tizimlashtirish maqsadida o'tkazilgan SWOT-tahlil natijalari 4-jadvalda keltirilgan. Tahlil viloyatning resurs va salohiyat ustunliklari bilan bir qatorda infratuzilma hamda diversifikatsiya sohasidagi cheklavlarni ham aniq ko'rsatadi.

4-jadval
Buxoro viloyati investitsion muhitining SWOT-tahlili

Kuchli tomonlar (Strengths) Neft-gaz va kimyo sanoatining yirik bazasi hamda ikkita amaldagi neft-gaz-kimyo majmuasi. Uch ming yillik tarixiy-madaniy meros va rivojlangan turizm salohiyati (yiliga ~1,7 mln sayyoh). Qayta tiklanuvchi energetika uchun yuqori quyosh va shamol resurslari. Davlat dasturlari hamda imtiyozli soliq-investitsiya rejimi.	Zaif tomonlar (Weaknesses) Muhandislik-transport infratuzilmasi va sanoat modernizatsiyasida nisbiy orqada qolish. Iqtisodiyot tarkibida xomashyoga yo'naltirilganlik va past darajadagi diversifikatsiya. Yuqori malakali kadrlar va innovatsion salohiyat yetishmovchiligi. Suv resurslarining cheklanganligi va ekologik bosim.
Imkoniyatlar (Opportunities) "Yashil" energetika va yuqori qo'shilgan qiymatli qayta ishlash tarmoqlarining o'sishi. Markaziy Osiyo logistika yo'nalishlari va eksport bozorlariga chiqish. Turizm infratuzilmasiga xalqaro mehmonxona brendlarining jalb etilishi. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini kengaytirish.	Tahdidlar (Threats) Mintaqalararo va xalqaro investitsion raqobatning kuchayishi. Tashqi bozor konyunkturasi va energiya narxlarining beqarorligi. Iqlim o'zgarishi va suv tanqisligining kuchayishi xavfi. Geosiyosiy noaniqlik va kapital oqimlarining o'zgaruvchanligi.

Manba: muallif tomonidan o'tkazilgan tahlil asosida tuzilgan.



Olingan natijalar nazariy adabiyotda ilgari surilgan asosiy farazlarni tasdiqlaydi. Buxoro viloyatida yalpi hududiy mahsulot, sanoat va xizmatlar sohasidagi barqaror o'sish bilan investitsiya oqimlarining jadallashuvi o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik Dunningning "eklektik paradigmasi" (OLI) hamda Borensztein modelining hududiy darajadagi amal qilishini ko'rsatadi. Bunda investitsiyalarning eng katta multiplikator samarasi xomashyo qazib olishda emas, balki qayta ishlash va yuqori texnologiyali sanoatda — masalan, avtomobilsozlik va neft-kimyo klasterlarida — kuzatiladi.

Ayni paytda tadqiqot natijalarini bir tomonlama optimistik talqin qilishdan saqlanish lozim. Viloyatlararo qiyosiy tahlillarga ko'ra, Buxoro viloyati bir qator ko'rsatkichlar bo'yicha Toshkent va Navoiy viloyatlaridan infratuzilma hamda sanoat modernizatsiyasi darajasi jihatidan nisbatan orqada qolmoqda. Bu holat investitsion oqimlarning hududlar o'rtasida notekis taqsimlanayotganini va viloyat raqobatbardoshligini oshirish uchun maqsadli chora-tadbirlar zarurligini ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, viloyat iqtisodiyotining neft-gaz va xomashyoga yo'naltirilganligi tarkibiy zaiflik sifatida baholanadi. Tashqi bozor konyunkturasi va energiya narxlarining beqarorligi bunday tuzilmani tashqi shoklarga nisbatan sezgir qiladi. Binobarin, qayta tiklanuvchi energetika, turizm va qayta ishlash sanoati hisobiga diversifikatsiyani chuqurlashtirish uzoq muddatli barqarorlikning kalit shartlaridan biriga aylanadi.

Investitsion jozibadorlikni oshirishda institutsional omillar — ma'muriy protseduralarning shaffofligi, mulk huquqlarining himoyasi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining rivoji va inson kapitali sifati — moliyaviy rag'batlardan kam bo'lmagan ahamiyat kasb etadi. Borensztein modelining markaziy xulosasiga muvofiq, xorijiy kapitalning ijobiy ta'siri faqat yetarli inson kapitali mavjud bo'lgan sharoitda to'liq namoyon bo'ladi; shu bois kadrlar tayyorlash tizimini investitsiya ustuvorliklari bilan uyg'unlashtirish strategik vazifa hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Buxoro viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar yetakchi harakatlantiruvchi omillardan biri ekanligini empirik tarzda tasdiqladi. Investitsiya oqimlarining jadallashuvi yalpi hududiy mahsulot o'sishi, bandlikning kengayishi, kambag'allikning qisqarishi hamda sanoat diversifikatsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Ayni vaqtda viloyat salohiyati hali to'liq ishga solinmagan bo'lib, infratuzilma va tarmoq tarkibidagi cheklovlar mavjud imkoniyatlarni jilovlamogda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiya qilish — xomashyo eksportiga bog'liqlikni kamaytirish maqsadida yuqori qo'shilgan qiymatli qayta ishlash va "yashil" energetika tarmoqlariga investitsiyalarni ustuvor yo'naltirish.

Infratuzilmani modernizatsiya qilish — transport-logistika va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish orqali viloyatning mintaqalararo raqobatbardoshligini oshirish.

Institutsional muhitni takomillashtirish — davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, ma'muriy protseduralarni soddalashtirish va investorlar huquqlari himoyasini kuchaytirish.

Inson kapitalini rivojlantirish — investitsiya ustuvorliklariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini moslashtirish va innovatsion salohiyatni oshirish.

Turizm salohiyatidan foydalanish — viloyatning madaniy-tarixiy merosini iqtisodiy o'sish manbasiga aylantirib, xalqaro mehmonxona brendlari va xizmat ko'rsatish infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb etish.

Ushbu chora-tadbirlarning kompleks tarzda amalga oshirilishi xorijiy investitsiyalarni mahalliy ustuvorliklar bilan uyg'unlashtirish hamda Buxoro viloyatining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi. Keyingi tadqiqotlarda investitsiyalar va YHM o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik (panel regression) modellar asosida miqdoriy baholash istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Borensztein E., De Gregorio J., Lee J.-W. *How Does Foreign Direct Investment Affect Economic Growth?* // *Journal of International Economics*. — 1998. — Vol. 45, No. 1. — P. 115–135.
2. Dunning J.H. *Multinational Enterprises and the Global Economy*. — Wokingham: Addison-Wesley, 1993. — 687 p.
3. UNCTAD. *World Investment Report 2024: Investment Facilitation and Digital Government*. — Geneva: United Nations, 2024.
4. World Bank. *Uzbekistan Economic Update*. — Washington, D.C.: The World Bank, 2023.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda PQ-459-son "O'zbekiston Respublikasining 2023–2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6329448>



6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Investitsiyalar to'g'risida statistik to'plam*. — Toshkent, 2024.
7. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. *2023–2024-yillar uchun investitsiya dasturi statistik ko'rsatkichlari*. — Toshkent, 2024.
8. Buxoro viloyati statistika boshqarmasi. *Yalpi hududiy mahsulot to'g'risida axborotnoma*. — Buxoro, 2025. — buxstat.uz.
9. Soliyev A.A. *Xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik // TDIU Ilmiy axborotnomasi*. — 2019. — № 2.
10. Jumayeva Z.Q., Matkarimov G. *Mintaqada faol investitsiya siyosatining iqtisodiyot tarmoqlari o'sishiga ta'siri // Analysis of Modern Science and Innovation*. — 2025. — № 1(6). — B. 205–212.
11. *Xorijiy va ichki investitsiyalarning Buxoro viloyati iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri // Studying the Progress of Science and Its Shortcomings*. — 2025. — esiconf.org.
12. *Viloyatlararo investitsion farqlar va rivojlanish imkoniyatlari: statistik modellashirish asosida // Advances in Science and Sustainability*. — 2025. — Vol. 01, No. 11.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>